

ABDULLA ORIPOV IJODIDA ONA OBRAZI

Ahmedova Pokiza Rustamovna

Nukus davlat pedagogika instiuti Turkiy tillar fakulteti talabasi

Annatatsiya: Abdulla Oripov ijodining o'ziga xos tomonlari haqida so'z yuritar ekanmiz, uning ijodida ona obrazi yetakchilik qiladi. Abdulla Oripov ijodining xalqqa manzur kelgan xususiyatlaridan biri uning she'rlarini xalqchiligidagi ,xalq tilida yozilganligidadir.

Kalit so'zlar: Vatan ,ona , she'riyat ,xalqchlik, ijod .

She'riyatni onajonim deb ulug'lagan va chindan ham she'riyatga fidoyi farzand bo'lган Abdulla Oripovning she'ri kirib kelmagan xonodon topilmasa kerak. Islom Karimov ta'kidlashicha Abdulla Oripov she'riyatining bugungi ma'naviyat va marifat bosqichi muhim ahamiyatga ega. Abdulla Oripov ardoqli o'zbek shoiri va jamoat arbobi, zamonaviy o'zbek she'riyatida inson qalbidagi murakkablik va ziddiyatlarni teran haqqoniy o'ziga xos betakror kuylagan taniqli ijodkor. Abdulla Oripov hozirgi o'zbek she'riyatiga yangicha badiiy tafakkur yo'sinlarini olib kirdi. U tub mohiyati bilan Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur, Cho'lpon, G'afur G'ulom singari ijodkorlar badiiy an'analarini davomchisi hisoblanadi. Shoир O'zbekiston Davlat madhiyasini mualifidir. Abdulla Oripov – noyob iste'dod egasi chuqur falsafiylik milliy ruh, diniy axloqiy me'zonlarga sadoqat shoир she'riyati asoslarini tashkil etadi. O'zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she'riyati katta o'rın tutadi. Abdulla Oripov haqida so'z ketganda o'zbekning tanti va jaydari farzandi ko'z oldimizga gavdalananadi. Abdulla Oripov hamisha o'z vaqtida maydonga keladi ,u-hamisha tarixiydir. Shoир o'z xalqining ovozi, uning orzu-umidlari va inson qalbi iztiroboqlarining ifodachisidir.

Abdulla Oripovning she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirar ekanmiz , uning yana bir hislati haqida to'xtalib o'tmog'imiz joizdir . Bu hislat shoир she'rlarida badiiyatdir. Shunga tuxtalib o'tishimiz joizki Abdulla Oripov yoshlar bilan bo'lган bir suhbatda shunday deydi : o'zbek tilida eshakni eshak deyiladi , lekin ba'zi shoirlar eshakni eshak deyishdan or qilishadi , deya qo'rmasdan aytoladi . Shoир xalq so'zini xalq qalbini ko'laydi , ko'laganda dilrabo ohang bilan yonib , o'rtanib ko'laydi . Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetining professori Nurboy Jabborov o'z nutqida agar hayot bo'ganlarida yurtbosimizning bugungi g'oyalari va islohotlari targ'ibotchisi sifatida ularning o'ng qo'l qanonida bo'lislilari shak -shubhasiz edi , deya ta'kidlaydilar. Xalqning o'z shoiriga bo'lган bu muhabbati Abdulla Oripov o'zi orzu qilgandek ‘bizniki ‘ bo'lib qolganini bildiradi : Koshkiydi ahli yurt turib tepamda -U bizniki edi –desalar deb yozgan shoир usha olis yillar ortidagi ‘Mitti yulduz ‘ to'plamida boshlab xalqning o'ziniki bo'lib qolgan edi . Abdulla Oripov qaysi bir mavzuga qo'l o'rmasin nima haqida she'r yozmasin ,uning ko'zi oldida ulug' vatan turadi ,ona timsoli turadi, usha ulug' vatanining farzandi sifatida qo'liga qalam oldi. Shu sababdan uning she'rlari doim hayotbaxsh , nafasi baland, ovozi dadil , ruhi tetik deb yozadi – Matyoqub Qushjanov . Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos xususiyati shundaki uning she'rlarida xalqa manzur kelgan xususiyatlaridan biri uning xalqchligida , xalq tilida yozilganligidadir. Abdulla Oripov she'riyati xalq va adabiyotshunoslik bir ovozdan e'tirof etganidek ,o'zbek poezasida muhim o'ringa katta salmoqqa ega bo'lган she'riyatdir. Uning she'riyatida xalq qalbiga yaqinlik , xalq dildagi quvonch va shodlik , armon va dardlarni topib suylash ,insoning rangin tuyg'ularini rassamona ko'z bilan ilg'ab ,musiqiy misralarda ifodalash, uning she'riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg'unligi –shoир she'rlarining takrorlanmas , o'ziga xos xususiyatlaridir .Abdulla Oripovdek shoirning qalbi ona zamin yanglig' sahovatlidir .Zamin bag'rida turfa xil gullar ochiladi , tekonlar o'sadi . Shu kabi shoirning qalbi ham o'z tuyg'ularidan turfa xil gullar –she'riyat gullarini armug'on etadi.

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 3, ISSUE 2, 2024

Chindan ham Abdulla Oripovning she'rlari mohiyat e'tiborini bilan boqe bo'lgan she'rlardir . Biz uchun "shoir bir yurt "bulgan O'zbekiston uchun shoir ham uning she'rlari ham hamisha aziz va ardoqlidir .

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati :

1. Abdulla Oripov .Yuzma -yuz . G'afur Gulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyot Toshkent ,1978.
2. Abdulla Oripov. Mitti yulduz. Toshkent ,1965.
3. Abdulla Oripovning ,Yillar armoni .33-b
4. Abdulla Oripovning 1981 yil avgust oyida bo'lib o'tgan "yosh ijodkorlar ning respublikka semenari 2 mashg'ulotidagi suhbatidan . "O'qituvchi " nashriyoti. Toshkent 1975
- 5.Matyoqub Qushjanov. Onajonim she'riyati .- "o'qituvchi "she'riyati . Toshkent 1984.
- 6.www.ziyouz.com .
- 7.www.ijoduz.
- 8.www.adabiyot.uz